



## ABDURAUF FITRAT. MUSULMONLAR, G'OFIL QOLMANG! (1917)

Anvarov Sunnatillo Doniyorjon o 'g'li  
Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti  
Sharq falsafasi va madaniyat 4-kurs

**Antonatsiya:** O'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan Abdurauf Fitrat hayoti va ijodi, "Musulmonlar, g'ofil qolmang" maqolasiga xulosa.

**Kalit so'zlar:** Abdurauf Fitrat, jadidchilik, shahar dumasi, "Tahriri nufus", "Yosh turklar", "Yosh buxoroliklar", Buxoro amirligi, Munzim, "Hurriyat" gazetasi, "Qo'qon muxtoriyati", saylov.

Yaqinda shahar dumasi ochilur. Shahar dumasi, shahrimizning pokizalik va obodlig'i, maktablarimizning taraqqiy va intizomi, bolalarimizning tarbiyasi va xalqimizning tinchligi uchun kerak bo'lgan ishlarni o'z qo'liga olur. Shahrizmizdan xazinaga kiraturgan oqchalarni shu yo'llarda sarf qilmoqchi bo'lur.

Bu oldimizdag'i shahar dumasi eski hukumat zamonidagi shahar dumalarig'a o'xshamas. Yigirmadan o'tgan butun shahar odamlarining ixtiyorlari bilan saylanurlar. Bu shahar dumasinda juhuddan, rusdan, musulmondan vakil qilib o'turur. Va shahar ishlari uchun gapurushurlar. Shaharning qaysi qit'asinda kasalxonalar qurmoq kerak, shaharning qaysi qit'asindag'i yo'llarni tuzatmoq kerak, shaharning qaysi qit'asinda qancha maktab solmoq kerak deb kengashurlar va shul to'g'rilardag'i ishlarni «vakillar ko'bchiligi» ning qarori bilan qilmoqchi bo'lurlar. Vakillar ko'bchiligi hamidan burunroq eski qit'aning yerlarin tuzaturg'a qaror bersa, chora yo'q, shu qilinur. Vakillar ko'bchiligi ko'broq kasalxonalarini yangi qit'ada solmoqchi bo'lsa, iloji yo'q, shu bo'lur.

Mana shularni onglagan har jamoat, har millat shahar dumasiga o'zidan ko'broq vakil o'tkazmoq uchun tirishadir, dumaning ko'bchiligining o'ziga olmoqchi bo'ladir. O'tgan haftadagi «tahriri nufus»dan ong'lashildiki: shahrizmizda xalqning to'rtdan uchi musulmon va to'rtdan biri rus, armani va juhud ekanlar. Shunga qarag'anda unlar xazinadan chiqim bo'laturg'an oqchaning uch shunchasi biz uchun chiqg'uchidur. Unlarga maktab ochilsa bizga uchta; unlarga bir kasalxona ochilsa bizga uchtasi ochg'uli; unlarga bir put bug'doy kerak bo'lsa bizga uch put kerakdir.

Qisqasi shulkim: bizning haqimiz ularning haqtarindan uch yo'la berkdir. Mana shularni tilab olmoq uchun shahar dumasining ko'bchiligini olmoq kerak, shahar dumasining ko'bchiligini olmoq uchun musulmonlarning saylov kuni lozimdir. Yo'q, saylov kuni har kim o'z uyinda o'tirsa; boshqalar ko'bchilik bo'lib kelsalar va dumaning ko'bchiligini o'z taraflarig'a o'tkarsalar; u vaqt biz hech bir haqimizg'a erisholmasmiz, yana eski kabi huquqsiz bo'lib qolurmiz; yana eskisi kabi o'z shahrizmizda o'z oqchamizning rohatini o'zimiz ko'rolmasmiz.



Shuning uchun bag‘iribroq aytamankim, o‘z xalqlarini yana boshqalarning oyoqlari ostinda qo‘ymoqchi bo‘lmaq‘an musulmonlar! Saylov kuni g‘ofil qolmanglar, ko‘bchilik bo‘lib kelurg‘a tirishinglar.<sup>4</sup>

Abdurauf Fitrat (1886, Buxoro shahri, Buxoro amirligi — 4-oktabr, 1938, Toshkent shahri, O‘zbekiston SSR) — o‘zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoир, zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O‘rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakillaridan biri, birinchi o‘zbek professori[1] (1926). Jadidchilik milliy ma’rifatparvarlik harakatining tarafdoi. Turkiyada o‘qigan. Inqilobga qadar O‘rta Osiyoni Rossiyadan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo‘lgan. Turkiyadagi „Yosh turklar“ harakatidan ilhomlanib, Buxoroda „Yosh buxoroliklar“ partiyasini tuzgan, uning ma’naviy rahnamosiga aylangan. Do’sti va maslakdoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga yuborgan (1922).

Fitrat 1917-yilgi fevral voqealaridan so‘ng jadidlarning Buxorodagi ahvoli murakkablashgach, Samarqandga ko‘chib borib 1917-yil apreliдан 1918-yil martigacha chiqib turgan „Hurriyat“ gazetasiga muharrirlik qiladi (1917-yilgi 27-sonidan 1918-yilgi 87-sonigacha), gazeta ishlarini rivojlantirish maqsadida Fitrat nashriyotga O‘rta Osiyo jadidchiligining darg‘asi, muftiy Mahmudxo‘ja Behbudiyni taklif etadi. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda Fitrat shu-yillarda „Ittihodi taraqqiy“ tashkiloti Eski Buxoro bo‘limining raisi ham bo‘lgan.

1917-yilning oktabr oyini „Yurt qayg‘usi“ deb baholadi. Ammo nurli kelajakdan umid uzmadi. 1917-yil 27-noyabrda e’lon qilingan Turkiston Muxtoriyatini so‘ngsiz mehr bilan qarshi oldi. Hatto 27-noyabrni „Milliy laylatulqadrimiz“ deb atadi. Ammo uning bu quvonchi uzoqqa cho‘zilmadi, 1918-yilning 19-20-fevralida Turkiston muxtoriyati bolsheviklar va armanlarning „Dashnaksutyun“ partiyasi tomonidan qonga botirildi. Bu voqeа tarixda „Qo‘qon voqeasi“ nomini olgan.<sup>5</sup>

Abdurauf Fitrat 20-asr birinchi uchdan bir qismidagi o‘zbek ijodiy-intellektual tafakkurining yorqin namoyandasи, yozuvchi va publisist bo‘lib, uning asarlari milliy adabiyot rivojida muhim bosqich bo‘ldi. Fitrat jadidlar ijtimoiy-siyosiy va ma’rifiy harakatining eng nufuzli namoyandalaridan biri bo‘lgan holda maorif va savodxonlikni keng yoyish, ilm-fan va bosma nashrni rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga da’vat etdi. Fitrat o’sha davrning eng nufuzli mualliflaridan biri edi. Uning aksariyat kitoblari, publisistik maqola va risolalari mintaqada ijtimoiy-ma’rifiy islohotlarni zudlik bilan amalga oshirish zarurligiga bag‘ishlangan edi. Fitrat o‘z asarlarida jamiyatning jaholat va qoloqligini keskin tanqid

<sup>4</sup> («Hurriyat», 1917 yil, 25 avgust, 33-son)

Qayta nashri: «Yoshlik», 1991,10-son, 44-45-betlar (N. Avazov nashrga tayyorlagan). Maqola Samarqand shahri dumasiga saylovlar oldidan yozilgan.

<sup>5</sup> [2.https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/abdurauf-fitrat-musulmonlar-g-ofil-qolmang-1917](https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/abdurauf-fitrat-musulmonlar-g-ofil-qolmang-1917)

<sup>5</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdurauf\\_Fitrat](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdurauf_Fitrat)



CANADA



CANADA

qilib, ma’naviy va moddiy turg‘unlik sabablarini aniqlashga urinib, xalqning madaniy, axloqiy va intellektual qadriyatlarini tiklashga chaqirdi.<sup>6</sup>

Samarqandda 1917 yil apreliдан «Hurriyat» gazetasi chiqa boshlagan edi, avval unga Mardonqul Shohmuhammadzoda, keyin 27—28-sonlariga Fitrat muharrirlik qildi. 1917 yil Oktyabr to‘ntarishi munosabati bilan shu «Hurriyat» gazetasida Fitratning «Rusiyada yangi balo bosh ko‘tardi — bolshevik balosi!», degan qaydi bosildi (o’sha gazetaning 1917 yil 49-sonida).

Qo‘qon muxtoriyati tuzilganda (1917 y. noyabr) Fitrat Samarqandda edi. Shu yerdan unga vakil-a’zo qilib saylandi. O‘zining «Hurriyat» gazetasida bu voqeani Fitrat yuraqdan quvvatlab maqola e’lon qildi: «Ellik yildan beri ezildik, tahqir etildik. Qo‘limiz bog‘landi, tilimiz kesildi. Og‘zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi. Molimiz talandi, sharafimiz yemruldi. Nomusimiz g‘asb qilindi, insonligimiz oyoqlar ostiga olindi. To‘zimli turdik. Sabr etdik. Kuchga tayangan har buyruqqa bo‘ysundik. Butun borlig‘imizni qo‘ldan berdik. Yolg‘iz bir fikrni bermaduk, yoshuntirduk, imonlarimizga o‘rab saqladuk. Bu — Turkiston muxtoriyati. Mahkama eshiklaridan yig‘lab qaytganda, yoruqsiz turmalarda yotganda, yirtqich jandarmanning tepkisi bilan yig‘ilg‘onda, yurtlarimiz yondurulg‘onda, dindoshlarimiz osulg‘onda ongimiz yo‘qoldi. Miyamiz buzuldi. Ko‘zimiz yog‘dusiz qoldi. Biror narsani ko‘rolmadik. Shul chog‘da tushkun ruhimizni ko‘tarmak uchun, shul qop-qora dunyoning uzoq bir yeridin oydin bir yulduz yalqillab turar edi. Biror narsaga o‘tmagan ko‘zimiz shuni ko‘rar edi. Ul nima edi? Turkiston muxtoriyatil!» («Hurriyat», 1917, 5 dekabr). 1917 yilgi fevral inqilobini Rusiya musulmonlari, jumladan, Turkiston xalqlari ham benihoyat katta quvonch va umid bilan kutib oldilar. Ular tasavvurida hurriyat sodir bo‘lgandi: hademay, erkinliq ozodlik, istiqlol qo‘lga kiritilishi tayin edi.

1917 yilning 16 aprelida ish boshlagan Turkiston musulmonlari qurultoyida Turkiston o‘lka ijroiya qo‘mitasi a’zosi Kreps bunday degandi: “Musulmonlar! Siz butun yer yuzidagi musulmonlarning huri bo‘ldingiz!.. Eski hukumat siz ila so‘ylashganda, sabiy bola ila so‘ylashgandek so‘ylashar edi. Sizni hamisha bir yosh boladek ko‘rub o‘ksutar edi. Hozirgi hukumat (muvaqqat hukumat – B.D.) o‘zining aziz farzandidek ko‘rub, sag‘ir bola emas, kabir kishi ila, qul emas, ozod kishi ila so‘ylashkandek so‘ylashur. Ham shunday muomila qilur”. Bu balandparvoz so‘zlarni eshitgan bechora musulmon delegatlari qanday tuyg‘ular ichra g‘ark bo‘lishganini tasavvur qilish mumkin. Har holda, fevral inqilobidan so‘ng bir-biri bilan bog‘liq ikki masala kun tartibiga qo‘yilmoqda edi: biri – Rossiyaning bo‘lajak davlat tizimi qanday bo‘lishi kerak: ikkinchisi – Turkistonning usuli idorasi endi qay yo‘sinda bo‘lmog‘i lozim? Bu ikki masala fevral inqilobidan so‘ng Rossiya musulmonlari, jumladan, Turkiston musulmonlari qurultoyerlarida keng muhokama etildi. Ular bu masalada ikki xil davlat tuzimini ko‘rardilar: biri podsholikning tiklanishi: ikkinchisi – respublika boshqaruvi tizimi. “Rusianing butun ongli qismi, asrlardan beri har turli zulm va jabrlar ostinda

<sup>6</sup> <https://www.lolakarimova.com/ru/history-and-culture-of-uzbekistan/abdulrauf-fitrat/>

ezilgan qismi, va shul jumladan butun musulmonlar, hech shubhasiz, Rusiya idorasining mundan so‘ng jumhuriyat asosina quruluvun tilar”, – deb yozgan edi Orenburgda turk-tatar o‘rta tilida chiqadigan “Vaqt” gazetasi. Ushbu gazeta muxbiri podsholik tuzumining yaramasligini shunday muhokama aralash tushuntiradi: “Endi biz nima qilishimiz kerak? Romanovlar o‘rniga yangi podshoh qo‘yish kerakmi? Bunda, albatta, samoderjaviye haqida so‘z bo‘lishi mumkin emas. Yangi podshoh xalq tarafidan saylanib qo‘ylachak ham mashrutitka (mashrutit – konstitutsiya. – B.D.) sadoqat bilan emin etachak tub xalq qo‘linda bo‘lub ministrlar kabinetiga parlamentdagi xalq vakillari bilan tuzilachak. Ya’ni chin ma’nosi bilan mashrutiylidagi podshoh, (konstitutionnyi monarxiya) bo‘lachak. Shulay bo‘lg‘och, bunday podshohlikdan bizga ne zarur?” Shu bois jumhuriyat (respublika) tuzumini talab etish kerak.

Ayni paytda, Rossiya fuqarolari, jumladan, musulmonlari oldida qanday jumhuriyat bo‘lmog‘i kerak degan masala ham turardi. Bu masalada ham ikki fikr tug‘ildi. Shu o‘rinda mazkur masalaga turistonliklar qanday yondashganini ko‘rib o‘taylik. Ular bu masalani qurultoylarda qizg‘in muhokama qilgan edilar.

Umum Turkiston musulmonlarining 1-qurultoyi 1917 yilning 16-17 aprel kunlari Toshkentda o‘tkazildi. Unda Rossining hamda Turkistonning kelajakdagi usuli idorasi qanday bo‘lishi yuzasidan ham o‘zaro fikr almashiladi. Chunonchi, deputat Serali Lapin Rossiya usuli idorasi 2 xilda bo‘lishi haqida fikrlar borligini gapirib, biri – demokratik respublika, ikkinchisi – federativ respublika ekani, ikkinchi xil usul idora qaror topsa, Turkistonga muxtoriyat berilishi ko‘zda tutilajagi to‘g‘risida to‘xtaldi. Deputatlardan “Qori Same”, Tugusev, Farid, Zaki Validiy, Mahmudxo‘ja Behbudiy afandilar, yana bir necha zotlar uzun-uzun so‘zlab, hozirga berilgan hurriyatdan foydalananib, o‘zimizga aftonumiya olib qolishimiz kerak! Hozirgi vaqtini qo‘limizdan bersak, ikkinchi vaqt aftonumiya olamiz deb, ko‘b talafotlar berurmiz, ko‘b qonlar tukurmiz” deb qattiq turib olishdi, deya yozgan edi qurultoydan hisobot tayyorlagan jurnalist Mirmuhsin Shermuhammedov.

S’ezdga Qozondagi Markaziy “Sho‘roi islom” tashkilotidan vakil bo‘lib kelgan “Vaqt” gazetasi tahririyati a’zosi Kabir Bakir so‘zga chiqib, Turkistonga avtonomiya berish erta, hozircha xalq jumhuriyati uchun harakat qilmog‘imiz kerak, avtonomiya olib halokatga uchramaylik, deydi. Uningcha, Turkistonga avtonomiya berilsa ham, baribir, uni boshqaradigan mahalliy kadrlar yo‘q. Shu bois mavjud ahvol bilan hisoblashish kerak.

Xullas, shu ikki xil fikr atrofida bahs ketib, s’ezd ulardan birontasini ham qabul qilolmaydi. Turkistonning usuli idorasi qanday bo‘lishini hal etish uchun s’ezd 9 kishidan iborat bir hay’at saylash bilan kifoyalanadi.

Keyinchalik bu hay’at 13 kishiga yetkaziladi va sentyabr oyiga borib hay’at tuzgan dasturini taqdim etadi. Bu haqda biz sal quyiroqda to‘xtalamiz. Hozir esa, mazkur masalalarning Rossiya miqyosidagi ahamiyatini e’tiborga olib, umum Rossiya



musulmonlarining Moskva va Qozonda bo'lib o'tgan s'ezdlarida ushbu masalalar qanday muhokama qilinganiga murojaat etaylik.

Moskvada 1917 yilning 1-11 mayida bo'lib o'tgan umum Rossiya musulmonlarining 1-s'ezdida mazkur masala yuzasidan ikki xil fikr yuzaga kelib, delegatlar shu ikki turli fikr atrofida qattiq munozaraga kirishdilar. Bunga s'ezdda ushbu masala yuzasidan bir-biriga muqobil ikki ma'ruza qilingani sabab bo'ldi. Birinchi ma'ruzachi Ahmadbek Salikov Rossiyaning usuli idorasi unitar demokratik respublika (markazlashgan demokratik respublika) tarzida bo'lsin, degan fikrni quvvatlab, quyidagi rezolyutsiyani ovozga qo'yish uchun taqdim etadi:

“a) Mamlakatning idorasi adam markaziyat va parlamentarnaya demokraticheskaya respublika hamda Qofqoz, Turkiston sahro va viloyatlari va Sibirda keng idorai muxtoriya usuli uzrinda bo'lurg'a tevish.

b) Rusiya musulmonlarina madaniy-milliy avtonomiya ta'min etilsun.”

A.Salikov va uning tarafdarlari tasavvuricha, Rossiyada, garchi markazlashgan (unitar) demokratik respublika qaror topgan taqdirda ham, u totalitar tuzumdan yiroq bo'lishi kerak edi. Mamlakatda parlamentning mavjud bo'lishi, demokratik huquqlarning ustuvorligi, markaziy hukumatning joylardagi hokimiyat tuzilmalariga kattagina huquqlar berishi nazarda tutilgandi. Rossiyadek ulkan mamlakatda yashayotgan turli millatlar o'zlarining madaniy-milliy masalalarini o'zları hal etishlari, bularga markaziy hukumat aralashmasligi lozim edi. Buning uchun turli millatlarning madaniy-milliy markazi tashkil etilishi va muayyan millat vakili mamlakatning qaysi burchagida yashamasin, uning madaniy-milliy muammosini ushbu markazgina hal etishi ko'zda tutilgandi.

Ikkinci ma'ruzachi Bokuda chiqadigan “Ochiq so'z” gazetasining muharriri Muhammad Eminbek Rasulzoda bo'lib, u federativ demokratik respublika tuzish g'oyasini o'rtaga tashlab, quyidagi rezolyutsiyani delegatlar e'tiboriga havola etadi:

“a) Rusiyadagi musulmonlarning manfaatlarin, huquqlarin eng keng suratda ta'min etaturg'on usuli idora bo'lsa unda: terituriya (tuproq) ham milliyat asoslarina qurulgon qo'shma (federativniy) xalq jumhuriyatidir. Shuning-la barobar ayrum bir o'runda ko'bchilik tashkil etmagan xalqlarga shaxsiy (personalniy) milliy muxtoriyat berilur.

b) Rusiya musulmonlarining umumiyligi diniy ham madaniy ishlarin idora etar uchun qonun chig'oruv haqina molik bo'lg'on bir umumiyligi markaziy musulmon muassisasi tuzilur” .

Shuni ham ta'kidlash kerakki, milliy-territorial avtonomiya talab qilganlar ham mutlaqo mustaqillikni nazarda tutolmaganlar. M.E.Rasulzoda ma'ruzasida urush, sulh, temir yo'llar, pul tizimi, bojxona xizmati, xorijiy savdo kabi masalalar markaziy hukumat tomonidan hal etiladi, deyilgandi. Sinchiklab e'tibor berilsa, mazlum millat (xalq)lar o'sha paytda Rossiyadan talab etgan mustaqilliklari to'liq bo'lmay, yarim mustaqillikdan iborat edi. Ularning eng katta orzusi o'zları maxsus hududga ega bo'lib,

bu hududga taalluqli mahalliy va milliy, madaniy masalalarini o‘zlar mustaqil hal etish huquqiga erishish bo‘lgan. Ko‘ramizki, umum Rossiya musulmonlarining 1917 yilda bo‘lgan 1- s’ezdida mazkur masalada, asosan, ikki xil qarash atrofida babs yuritilgan: birinchi qarash – Rossiya unitar demokratik respublikasi bo‘lib qolishi kerak: uning tarkibida musulmonlar o‘zlarining milliy-madaniy avtonomiyasiga ega bo‘ladilar. Ikkinci qarash – Rossiya federativ xalq jumhuriyati bo‘lib, turk-tatar qavmlari yashash joylarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda yo milliy-madaniy, yo milliy-territorial avtonomiyaga ega bo‘lishlari lozim. Jumladan, tatar qavmlari Rossiya hududida keng tarqalib yashagani uchun ularga milliy-madaniy avtonomiya berilishi ko‘zda tutilgan. Kavkaz, Turkiston va Sibirda g‘uj bo‘lib yashayotgan mahalliy aholi uchun milliy-territorial avtonomiya bo‘lishi ma’qul ko‘rilgan. Umum Rossiya musulmonlarining 1-s’ezdi 271 ovozga qarshi 446 ovoz bilan ikkinchi taklifni qabul qilgan.

Turkistonlik vakillar har ikkala s’ezdda ham ishtirok etganlar. O‘lka jadidlarining ko‘zga ko‘ringanlaridan biri advokat Ubaydulla Xo‘jayev har ikkala s’ezdda ham so‘zga chiqib, Turkistondagi mavjud ahvol bilan delegatlarni tanishtiradi, muhokama etilayotgan masalaga ularning nomidan munosabat bildiradi.

1917 yil martidan boshlab Turkistonda ham turli firqa va uyushmalar yuzaga kela boshladi. “Sho‘roi islomiya”, “Turk adami markaziyat (federalist)”, “Ulamo” va hokazo firqa va uyushmalar shular jumlasidandir. Bulardan “Sho‘roi islomiya” va “Turk adami markaziyat (federalist)” firqalari Turkistonning usuli idorasini qo‘shma xalq jumhuriyati (federativnaya demokraticeskaya respublika) tarzida bo‘lishi kerak, deb hisobladilar. “Ulamo” jamiyati ham bu fikrga kiyinchilik bilan qo‘shilgandi. Bu haqda jurnalist Hodi Fayziy bunday deb yozgandi: umum Turkiston musulmonlarining ikkinchi qurultoyida ulamolar kelajakda Turkistonning usuli idorasi kanday bo‘ladi, degan savolga “musulmonobod davridagidek xon ko‘tarilsin”, degan taklifni ilgari surishadi. Hatto Marg‘ilon ulamolari hamda Namangan ulamolarining peshvosi Nosirxon to‘ra Xudoyorxonning bir nevarasini topib, xon qilib ko‘tarmoqchi bo‘ldilar. Lekin qurultoyda jadidlar bilan ilg‘orrok qarashdagi so‘l ulamolar bunga qarshilik ko‘rsatishadi. Ular agar yana xon qilib ko‘tarilsa, xalq ko‘zg‘aladi, deb ogohlantirilganidan so‘nggina ulamolar jumhuriyat (respublika) masalasiga bir shart bilan, ya’ni uning shariatga bo‘ysunishi asosidagina rozi bo‘lishadi.<sup>7</sup>

## XULOSA

Abdurauf Fitratning bu maqolasi hozirgi tilimiz bilan aytganda shahar kengashi yoki hozirgi Oliy Majlis tuzish va unga bo‘ladigan saylovlardan haqida bo‘lgan. Va bu saylovda odamlarni e’tiborli va ma’suliyatli bo‘lishini hohlagan. Maqolasida Fitrat shahar dumasining - barcha musulmonlarga qanchalik ahamiyatli ekanligi, rivojlanishimiz, yangi islohotlar, yangi hukumat tuzishimiz va asosiysi o‘zbek xalqini birlashishini yoqlab chiqadi. Fitrat bularni amalga oshishiga shunchalik ishonganidan

<sup>7</sup> <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/tarix/boybota-dostqoraev-jadidlar-qanday-ijtimoiy-tuzumni-orzu-qilganlar/>

bejizga Turkiston Muxtoriyati tashkil topgan kunni “Milliy Laylat ul-qadrimiz” deb atamagan edi. A. Fitratni nima demoqchiligini bu so’zlaridan bilib olsa ham bo’ladi: “Yaqinda shahar dumasi ochilur. Shahar dumasi, shaharimizning pokizalik va obodlig‘i, maktablarimizning taraqqiy va intizomi, bolalarimizning tarbiyasi va xalqimizning tinchligi uchun kerak bo’lgan ishlarni o‘z qo’liga olur. Shahrimizdan xazinaga kiraturgan oqchalarни shu yo’llarda sarf qilmoqchi bo’lur.”

Endi maqolaga qaytsak, sarlavhaning o’ziyoq bir qarashda odamni o’ziga jalg qiladi “Musulmonlar g’ofil qolmang” Fitratning bu so’zlarida yashirin chaqiruv bordek. Chunki Fitrat bilardi va anglardi tarixda qanday mudhish voqealar bo’lib o’tganini, bularni yana bir bor takrorlanishini hohlamagani uchun saylovda barcha musulmonlarni qatnashishni chin dildan hohlardi. G’ofil qolishimiz natijasida nimalarni boy berdik o’ylaylik bir, rus bosqiniga uchradik g’ofil qoldik, haq-huquqlarimiz, urfat va diniy ananalarmizdan mahrum qilishdi yoki qatiy cheklovlari o’rnatishdi g’ofil qoldik, qul qilishdi, shaxsiy fikrimiz, fikrlash erkinliklarimizni tortib olishdi afsuski, g’ofil qodik, g’ofil. Bunga sabab bizning birlasha olmaganimiz, ilmsizligimiz, qo’r quoqligimiz va sotqinligimiz sabab bo’lmadimikan? Va bu maqolda aytilgan gaplar oradan yuz yil o’tsa ham-ki, o’z ahamiyatini yo’qotmagan. O’tgan davrdagi bu muammolar afsuski, hozirda ham o’z yechimini topmagan. Masalan, biz ba’zi birlarimiz saylov larga shunchalar ma’suliyatsizlik qilamiz. Oliy Majlis yoki partiyalarga bo’ladigan saylov oldi dasturlariga qiziqmaymiz ham ertangi kelajagimiz, umidlarimizni kimga topshirishimiz biz uchun muhim emasdek go’yo. Shunchalar dangasaga aylандикми, saylov bo’ladigan kuni bir kishi saylov uchastkasiga borib o’zi va yana boshqaqlar nomidan ovoz berib kelsa-ya, bu achinarli holat. Uchastkalarning har birida saylanishga nomzodlarning ma’lumotlari bo’ladi biz bularni ham o’qib ko’rmaymiz. Bu ham mayli ijtimoiy tarmoqlar, multimedialarda ham saylov tashviqotlari bo’ladi va bularni ham kuzatgimiz kelmaydi. Xulosa qilib aytganda, jadidlar Turkistonni, jumladan, O’zbekistonni mustaqil davlat holida ko’rishni orzu qildilar. Ular shu yo’lda jon fido qilgan holda kurash olib bordilar. Bugungi O’zbekistonning mustaqil davlat sifatida shakllanishida, shak-shubhasiz, ularning ham hissasi bor. Jadidlarning davlat to‘g’risidagi qarashlari hayotda amalga oshmay qolishiga bolsheviklarning Rossiya hokimiyatini zo’rlik bilan egallashlari to’siq bo’lgandi. Ma’lumki, bolsheviklar muvaqqat hukumatni qurol kuchi bilan ag’darib, hoqimiyatni o’z qo’llariga olgach, ta’sis majlisi o’tkazilishiga turli bahonalar bilan yo’l bermadilar.

Yoruqsiz turmalarda yotg’anda, yirtgu’chi jandarmning tepgusi bilan yiqlig’anda, yurtlarimiz yondurulg’anda, dindoshlarimiz osulg’anda ongimiz yo’qoldi, miyamiz buzildi, ko’zimiz yog’dusiz qoldi... Asosiy g’oya ma’suliyatli bo’lishimizga chaqirgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1..(«Hurriyat», 1917 yil, 25 avgust, 33-son)

Qayta nashri: «Yoshlik», 1991,10-son, 44-45-betlar (N. Avazov nashrga tayyorlagan). Maqola Samarqand shahri dumasiga saylovlar oldidan yozilgan.

2. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/matbuot/jadid-matbuoti/abdurauf-fitrat-musulmonlar-g-ofil-qolmang-1917>

3. <sup>1</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdurauf\\_Fitrat](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdurauf_Fitrat)

<sup>1</sup> <https://www.lolakarimova.com/ru/history-and-culture-of-uzbekistan/abdurauif-fitrat/>